



**AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV TAVALLUDINING
105 YILLIGI MUNOSABATI BILAN O'TKAZILGAN
XALQARO ILMIY KONFERENSIYA MATERIALLARI
TO'PLAMI**



Toshkent – 2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**

**AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV
TAVALLUDINING 105 YILLIGI MUNOSABATI
BILAN O‘TKAZILGAN XALQARO ILMIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI
TO‘PLAMI**

Toshkent – 2025

5. Koçyiğit, Talat, *Hadis Istılahları*, A.Ü.İ.F. – Ankara, 1981.
6. Yücel, Ahmet, *Hadîs Istılahlarının Doğuşu ve Gelişimi Hicrî İlk Üç Asır*, M.Ü.İ.F.V. Yay. – İstanbul, 1996.
7. Xatib-Bag‘dodiy, Abu Bakr Ahmad ibn Ali, *ar-Rihla fi talabi’l-hadis*, tahqiq Nuriddin It. – Bayrut, 1975.

*Mirzayev Nasriddin Muxritdinovich*¹

HOMID XO‘JA BUXORIYNING ILMIY MEROSI XUSUSIDA

ABOUT THE SCIENTIFIC LEGACY OF HAMIDKHWAJA BUKHARI

Abstract: *This article provides an analytical overview of the scholarly legacy of Mulla Hamidkhwaja Bukhari, who lived and worked during the final periods of the Emirate of Bukhara. In particular, his socio-political views, as well as his scientific and creative approaches, are discussed and explained. The author’s two works, «Tanzil al-amsal» and «Muntakhab», are evaluated as historical and memoir-style sources that offer critical insights into the political, social, and cultural life of the Emirate of Bukhara. Mulla Hamidkhwaja Bukhari was born into a family of qazis (judges) in Bukhara, which allowed him to gain close familiarity with the lives of many officials in the emirate. After completing his studies, he became the son-in-law of the qazi of Charjuy (modern-day Turkmenistan), and this connection enabled him to begin his career in a leadership position. His unique insights and conclusions about the lives and practical activities of officials and dignitaries further enhance the significance of his written sources. Additionally, he provides a distinctive account of the conflicts and relations between Bukhara and the Russian Empire, offering a unique perspective on their characteristics. The works written by the author have not yet been introduced into scholarly circulation, which has hindered the opportunity to compare the events and incidents he described with other sources. This is particularly significant because many of the events recorded by the author were also documented by contemporary writers, especially opposing Russian historians and officials, who compiled numerous reports and intelligence-based information now preserved in archives. These materials provide opportunities to further verify the reliability of the author’s accounts and contribute to establishing a more accurate level of credibility.*

XX asr tarixshunosligida amir va xonlar, saroy amaldorlari shaxsiyatini yoritishda ularni zulmkor, dunyobexabar, ilmsiz, qoloq kabi qora bo‘yoqlar bilan tasvirlash an’anasi dastlab, milliy ziyolilarni ushbu tuzumga qarshi qurashi bilan boshlangan bo‘lsa, keyinchalik bolsheviklar tomonidan tarixni

¹ O‘zbekiston Milliy arxivi katta ilmiy xodimi.

E-mail: nosir86@mail.ru. ORCID: 0009-0001-6341-146X.

yoritishdagi qat'iy mafkuraviy talab sifatida belgilab berilganligi bilan izohlanadi. Aynan shu sabab, XX asr boshlarida yaratilgan aksariyat asarlarda, xususan, Baqoxo'ja o'g'li Homidxo'ja Buxoriyning tarixni bayon etish uslubida ham shu jihatlar mavjud bo'lsa-da, uning bo'lib o'tgan voqealarni baholashda hayotiy misollar bilan asoslab berishi kabi o'ziga xos yondashuvi bilan ajralib turadi. Homidxo'ja Buxoriy nafaqat yuzaga kelgan muammolarni sababini keltirish bilan birga uning oqibatini ham tahlil qilib bergan. Muallifning tarixga oid yozgan 2 ta qo'lyozma asari bizga ma'lum. Birinchi asari «*Tanzil al-amsol fi zikri bayon al-ahvol*» («Bugungi kun holatini yorituvchi hayotiy misollar») 1928-yilda yozib tugatilgan. Ikkinchi 1932-yilda yakunlangan «*Muntaxabi ta'rix amironi Mang'it*» («Mang'it amirlariga doir saylanma tarix») qo'lyozmasidir. Ushbu asarlar Buxoro inqilobidan (1920-yil) keyin yozilganini inobatga olsak, mang'it amirlari davri jiddiy tanqid qilinib, ayollarni «tahqirlangan» va «xo'rlangan» sifatida 1-2 ta misol bilan baholab, sovet hukumati ayrim rahbar va mutasaddilarining shaxsiy hayoti va axloqiy tutimlariga salbiy baho berish bilan cheklanadi.

Muallif keltirgan tarjimayi holida tadqiqot ishida bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy, diniy-ma'rifiy va iqtisodiy-harbiy voqealarga doir misollarning juda ehtiyotkorlik bilan tanlab yozgani, o'z davridagi dolzarb masalalarni muhimlik nuqtai nazardan tartiblab chiqqani hamda Buxoro amirligida har bir masalaning muqobilini Rossiya imperiyasi hududidagi holat bilan qiyosiy solishtirishi maqolamizning muhim qismidir.

Mulla Homidxo'ja bin Qozi Baqoxo'ja 1879-yilda Buxoro shahri Yalangi Boqijon guzarida tug'ilgan [1: 1]. Buxoro amirligida Buxoro shahar, Ziyovuddin tumani Nahr Payyi mavzei (hozirgi Narpay tumani)da, Shahrisabz-Kitob, Xatirchi, Panjakent kabi bekliklarda rais bo'lib ishlagan. 1930-yilda sovet hukumati tomonidan Tojikistonga surgun qilingan. Taxminlarga ko'ra, 1935-yillarda Tojikiston SSRning Dushanbe shahrida vafot etgan.

Mulla Homidxo'janing yuqorida zikr qilgan asarlaridan «*Tanzil al-amsol fi zikri bayon al-ahvol*» hozirda O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. «*Muntaxabi ta'rix amironi mang'it*» asari esa Tojikiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Abdulloh Rudakiy nomidagi Til va adabiyot institutida saqlanadi [3: 38]. Muallif asosan fors-tojik tilida ijod qilib, ayrim hollarda arabcha va o'zbekcha so'zlardan ham foydalanadi. Har ikki asar yangi fabrika qog'ozida yozilgan, birinchi asarini yozishda zamonaviy qora tushdan, ikkinchisida esa ko'proq qora qalamdan foydalangan.

Muallif o'zining oliy ma'lumotli, o'zbek, tojik va arab tillarini mukammal bilganini yozadi. Uning shoir tabiati bevosita asarlaridagi baytlaridan ma'lum. Shuningdek, Muhammadsharif Sadri Ziyoning «*Tazkori ash'or*»ida «Matviy» taxallusi bilan yosh va qobiliyatli Mulla Homidxo'ja valadi Qozi Baqoxo'ja Buxoriyning she'rlaridan misollar keltirib, hozirda talabalik davrida aqoid fanidan dars olayotgani haqida ma'lumot beradi [4: 256]. Muallifning

she'riyatdagi xushso'xanligi, har bir voqea va hodisalarga munosib ikki misra masnaviy yoki ruboiylarni ham o'zi ijod qilishi yoxud mashhur shoirlardan naql qilib yozishi favqulodda xotira egasi ekanini anglatadi.

Homidxo'ja Buxorodagi Muxtor madrasasida o'qib, uylaridan uzoq bo'lmagan mazkur madrasada bobolaridan vaqfi avlodiy sifatida qolgan bir kichik hujrada yashagani, yoshlik chog'ida otasidan yetim qolib, buvisi, onasi va katta akasi bilan voyaga yetib Chorjo'ydagi marhum otasi Karkiy qozisi Baqoxo'janing yaqin do'sti va kelajakda uning qaynotasi bo'lgan Qozi Mulla Mir Zarif sudur valadi Oxund Domla oldiga safar qilgani haqida batafsil yozadi.

Mulla Homidxo'ja Buxoriy madrasadagi darsliklarni o'qiganini ko'plab ta'kidlasa-da, yozganlaridan anglash mumkinki, diniy bilimlar va madrasa ixtisosligidagi fanlarni chuqur o'zlashtira olmagan. Ehtimol bunga otasini do'sti Mulla Mir Zarif sudur qozining qiziga uylanib, uning xomiyligida yosh bo'lishiga qaramay, Nasaf viloyati Xatirchi va Shahrisbaz tumanlarida rais amalini bajarga kirishib ketgani ham sabab bo'lgandir [5: 58b]. Xususan, muallif o'z xotiralarida Nasaf viloyati Qarshi shahrida raislik davrida masjidda jamoa namozini o'qib bergan imomning 4 rakat namozni 5 rakat o'qigani va farz namozi bekor bo'lishini sezib aytgan oddiy namozxonning gapini uyga borib kitobdan tekshirganidan so'ng to'g'riligiga ishonch hosil qilgani yozadi. Shuningdek, 1925-yilda qozi va rais lavozimlari tugatilgandan so'ng xo'jandlik talabalar bilan toshkentlik bir sudyadan yangi qonunlar bo'yicha bir muddat dars olgani va hech narsani tushunmaganini keltiradi [6: 632].

Albatta, keyinchalik amaliy tajribaga ega bo'lgan Homidxo'ja 1923-yilda Pirmast mavzeyida qozi, 1927-yilda Buxoro shahrining Labi Hovuzga yaqin joylashgan Kokulai Kalon masjidida imom-xatib bo'lib ishlagani, arxiv hujjatida «*Qori Mulla Homidxo'ja*», deb yozilganidan, uni Qur'onni hifz qilganini taxmin qilish ham mumkin [7: 254].

1930-yillardan keyin ismi sharifini Baqoev Homid, deb o'zgartirgan muallif Tojikiston SSR Dushanbe shahriga ko'chib ketadi. Buni 1932-yilda yozgan ikkinchi kitobi «*Muntaxab*» asarining muqaddimasida keltiradi [8: 14]. Homidxo'ja 1935-yilda quloq qilib, surgun qilingani haqida ma'lumotlar mavjud, lekin aynan qaerga yuborilgani va umrining nihoyasi qanday yakunlangani aniqlanmagan.

Buxoro viloyati davlat arxivida saqlanayotgan anketasida «1918-yilda Kolesov boshchiligidagi bolsheviklarning Buxoroga bosqini davrida amir zindonida bo'lganini yozadi. Qizig'i bu haqida muallif o'zining birinchi asari «*Tanzil al-amsol*»da ishora ham qilmaydi. Ammo har ehtimolga qarshi bunga asos topilmaguncha inkor qilish ham, tasdiqlash ham xatodir. Chunki jadidlar va ularga hamfikir bo'lganlar haqida zikr qilar ekan, o'zini betarafdek tasvirlaydi. Ayniqsa, yangi o'zgarishlarga moyil jadidlarning asos qilib olgan sabablarini keltirar ekan, jadidlarga qarshi fikrdagilarning asoslarini ham zikr qiladi. Ikkinchi tomonning asosiy tashvishi sifatida o'zlikni yo'qotishga sabab bo'luvchi keskin o'zgarishlarni inkor qilishlari, kelajak avlodning boshqa

millatlarga qaram bo'lishidan xavotirli sabablarni ro'kach qilgan ikkinchi tomonning sabablariniyam keltiradi. Ammo o'zi qaysi tomonga moyilligi ochiqdanmaydi. Biroq 1923-yilda Pirmast mavzeida qozi bo'lib tayinlangani, uni Fayzulla Xo'jaev hukumatiga yaqinlashganidan va murosaviy tabiatidan darak beradi.

Mulla Homidxo'ja Buxoriyning ilmiy qiziqishlari va siyosiy qarashlari, uning tarix, san'atshunoslik, jamiyatshunoslik, arxeologiya yoki epigrafiya fanlariga oid ma'lumotlari yozganlaridan bilish mumkin. Jumladan, «*Tanzil al-amsol*» asarining «Zikri holoti Ahmad Maxdum Kallai Buxoriy» bobida buxorlik ma'rifatparavar Ahmad Donishni ta'riflar ekan uning juda kuchli musavvir ekanini ham istisno qilmaydi. Chunki Ahmad Donish Rossiyaga rasmiy tashriflarida rus podshohidan olgan turli mashina (texnika) tasvirlari muqobilida ularning amaldorlariga hayratlanarli, o'ziga xos go'zal rasmlarni o'z qo'li bilan chizib berganini ta'kidlaydi [9: 89a-90b]. Shuningdek, Mulla Homidxo'ja Buxoriy G'ijduvon tumaniga safarlaridan birida bir kishining uyida aynan Ahmad Donish (1827-1927) chizgan tasvirning devorda osib qo'yganini alohida zikr qiladi.

Shu o'rinda muallif ko'p ma'lumotlarni oradan uzoq vaqt o'tib, xotirasida yod qolganlarini yozganini, «*Muntaxab*» asarining muqaddimasida keltirishicha, qarilik sabab ayrim ma'lumotlarni eslay olamaganligini inobatga olsak, ba'zi faktlarni chalkash va xatolar bilan berilganini ham ko'rish mumkin. Masalan, Ahmad Donishning «*Navodir al-vaqoe'*» asarini kamyob bo'lgani bois qo'lga kiritmagani va uni o'qib chiqmaganini aytadi. Ammo ko'p joylarda undan parchalar keltirishi yoki asar nomini «*Navodir al-vuqu'*» sifatida yozganini qayd qilish lozim.

Muallif 1920-yilning bahorida tuman hokimi va qozidan ruxsat olib safarga chiqadi. Ushbu safarni mazmunan ko'proq ilmiy safar sifatida ta'riflasak, mubolag'a bo'lmaydi. Zero u sheriklari bilan Qarshidan chiqib Koson tumaniga boradi, bu yerda ko'plab eshon va eshonlar jamoasi hamda ularning obro'yi va qudratlari haqida asosli mulohazalarni beradi. So'ng Dehayi Nasafdagi Yuzrabortga borgani, u yerda Qarshida joylashgan Abdullohxon madrasasining vaqf yerlarini ko'rgani, ularning tasarrufi og'oliq mansabidagi shaxsda bo'lgani, umuman og'oliq lavozimini hududning iqtisodiy va moliyaviy noziri sifatida ham baholaydi. Osori atiqalar sifatida Ko'kgumbaz, Sektariy mozori, Peshkent bozori va yo'li ustida joylashgan Abu Mu'in Nasafiy va Shamsulaimma Halvoniy qabrlarini ziyorat qilganini alohida ta'riflab o'tadi. Jumladan, Abu Mu'in Nasafiyning qabri toshida bitilgan yozuv: «*Hazihi as-salavot min tasnifi piri dastgir hazrat mahbubi rabboniy Sayyid Abdulqodir Jiyloniy roziyallohu taolo anhu*» («Bu salavotlar piri dastgir Sayyid Abdulqodir Jiyloniy yozuviga mansub») deganini o'qib, shoshib qolganini hayajon bilan eslaydi. Uning vaqti tig'iz bo'lgani bois bir xodimiga barcha matnni to'liq ko'chirib olishga amr qilganini yozadi [10: 420a-448b].

Mulla Homidxo‘janing siyosiy qarashlari turli joylarda namoyon bo‘lsa-da, ko‘proq Domla Muhammad Imkromchaning fikrlari va qarashlariga tobeligini sezish mumkin. Tanqidiy ruhiyatga moyil. Ammo G‘uzor hokimi Sayyid Akramxon haqida eslar ekan: «*Ulamolar podshohlarni madh qilar ekan so‘zlar shunchaki maqto‘v bo‘lmay, balki podshohlarga go‘zal xislatlarni nisbat berishi orqali aslida nasihat qilishni nazarda tutadilar*», deb ta’riflaydi. Shu bilan birga 1920-yildagi inqilobdan keyin hamon Kitob tumanida xizmat vazifasida turar ekan qaynotasi Qozi Mulla Mir Zarifning: «Bolam siyosatga aralashma, o‘zingni uzoq tut», degan nasihatini alohida eslaydi [11: 52a–64b].

Xulosa. Mulla Homidxo‘ja Buxoriy hayoti va ilmiy ijodi hamda asarlari haqida bugungi kungacha faqatgina O‘zbekiston va Tojikistonda chop etilgan qo‘lyozma manbalarining kataloglarida qisqacha ma’lumot berilgan bo‘lsa-da, L.M. Yepifanovanning Buxoro bosib olinishi tarixiga doir manbalar tavsifi qismida batafsil ta’rif berilgan [12: 64–69]. Ayrim mahalliy va xorijiy manbashunoslar tomonidan Homidxo‘ja Buxoriyning ilmiy merosi muhim manba ekanligi qisqacha eslab o‘tilgan bo‘lsa-da, alohida tadqiqot ob’ekti sifatida o‘rganilmagan.

Umuman olganda, Mulla Homidxo‘ja bin Qozi Baqoxo‘ja Buxoriyning zikr qilingan ikki asarlaridan tashqari, o‘zi jamlagan fatvolar majmuasi ham bor. Kelajakda muallifning «200 ta Oxund domla fatvolari» deb nomlagan asarini topib ilmiy muomalaga kiritish ham manbashunoslikning dolzarb masalalaridan biri sananaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Buxoro viloyati arxivi 454-fond, 2-ro‘yxat, 26-yig‘majild, 3-varaq.
2. Buxoriy Homidxo‘ja. Tanzil al-amsol fi zikri bayon al-ahvol. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasu Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmasi. № 602. – 661 varaq.
3. Baqoev Homid. Muntaxabi ta’rixi amironi mang‘it. Tojikiston Fanlar akademiyasi Abu Abdulloh Rudakiy nomidagi Til va adabiyot instituti qo‘lyozmasi. № 1329. – 38 varaq.
4. Sharifjon Maxdum Sadri Ziyo. Tazkori ash‘or (sharhi holi ba‘ze az shoiron va she‘rho) / Musahhih: Sahobiddin Siddiq. – Tehron, Surush, 1380. – 256 b.
5. Buxoriy Homidxo‘ja. Tanzil al-amsol fi zikri bayon al-ahvol. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasu Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmasi. № 602. – 58b-varaq.
6. Buxoriy Homidxo‘ja. Tanzil al-amsol fi zikri bayon al-ahvol. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasu Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmasi. № 602. – 632-varaq.
7. O‘zbekiston Milliy arxivi I-3-fond, 1-ro‘yxat, 715-yig‘majild, 254-varaq.

8. Baqoev Homid. Muntaxabi ta'rixi amironi Mang'it. Instituti zabon va adabiyoti ba nomi Abuabdullohi Rýdakii (AMIT). Dastxat: Inv. № 1329. – 14 varaq.
9. Buxoriy Homidxo'ja. Tanzil al-amsol fi zikri bayon al-ahvol. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasu Sharqshunoslik instituti qo'lyozmasi. № 602. – 89a–90b-varaq.
10. Buxoriy Homidxo'ja. Tanzil al-amsol fi zikri bayon al-ahvol. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasu Sharqshunoslik instituti qo'lyozmasi. № 602. – 420a–448b-varaq.
11. Buxoriy Homidxo'ja. Tanzil al-amsol fi zikri bayon al-ahvol. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasu Sharqshunoslik instituti qo'lyozmasi. № 602. – 52a–64b-varaq.
12. Епифанова Л.М. Рукописные источники Института востоковедения Академии наук УзССР по истории Средней Азии периода присоединения к России (Бухара). – Ташкент, 1965. – С. 64–69.

Dadamirzaev Muhammadzarif Olimjanovich¹

MAVLONO SOBITXONTO'RA NAMANGONIY - FARG'ONA FIQH MAKTABI VAKILI

MAWLĀNĀ THĀBITKHĀN TŪRĀ NAMANGĀNIY - REPRESENTATIVE OF THE FERGANA FIQH SCHOOL

Abstract. *This article provides information about the life and scholarly activities of Mawlānā Sayyid Thābitkhān Tūrā Namangānī and his contribution to the development of the Fergana fiqh school. It also briefly introduces the activities of madrasas and the intellectual environment in the city of Namangan during his time.*

In particular, important information is provided about the scholar's intellectual heritage and the works he left behind, highlighting their significance in the present day.

Keywords: *Fergana Fiqh School, Thābitkhān Tūrā Namangānī, Abul-Ma'ānī, tafsīr, hadīth, fatwā, madrasa, al-Fath ar-Rahmānī.*

Farg'ona fiqh maktabi vakillari islom ilmlari rivojiga ulkan hissa qo'shganlar. Xususan, ularning fiqh faniga oid ilmiy merosini alohida ta'kidlash joiz. O'rta asrlarda Farg'ona mintaqasida mahalliy fiqh maktabining shakllanishi uchun munosib sharoit shakllangan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti tayanch doktoranti.
E-mail: Haxajaja748@gmail.com. ORCID:0009-0005-5591-471X.

ISLOM SHUNOSLIK

Usmanov I.S. <i>Hanafi mazhabida shar'iy hiylalar</i>	272
Ismatova N.A. <i>Buxoro amirligida pul vaqflaridan foydalanish amaliyoti (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari)</i>	280
Мирджалалова Э.Р., Шарипова Г.У. <i>Проблема понимания и внедрения термина «Арабо-мусульманская культура» в исторических и исламоведческих дисциплинах</i>	284
Jumaniyozov M.D. <i>«Kifayatu-n-nahw fi ilmi-l-e'rāb» asarida Qur'oni karim oyatlari va hadislar tahlili</i>	291
Jo'rayev M.X. <i>Islom ilmlari tarixida hadis ta'limi</i>	304
Mirzayev N.M. <i>Homidxo'ja Buxoriyning ilmiy merosi xususida</i>	310
Dadamirzaev M.O. <i>Mavlono Sobitxonto'ra Namangoniy – Farg'ona fiqh maktabi vakili</i>	315
Salimova D.A. <i>«Al-Isloh» jurnalida bank muomalasiga oid masalalar muhokamasi</i>	320
Samsakova H. <i>Naqshbandiya-mujaddidiyaning Toshkent tarmog'i: Abdulmajidxon Eshon silsilasi</i>	326
Sayfullaev M.S. <i>«Al-Izoh» jurnalining Turkiston matbuotidagi o'rni</i>	330
Yunusova S.O. <i>«Al-Isloh» jurnalida «kiyim va qiyofat» mavzusi muhokamasi</i>	334
Hamdamova Sh.V. <i>Shayx Kamoliddin Husayn Xorazmiy – kubraviya tariqatining yetuk namoyondasi</i>	341

XORIJIY SHARQ MAMLAKATLARI TARIXI

Karimov B.R. <i>O'rtaturk tili va o'rta tabiiy yozuv tizimining turkiy tamaddun tillari rivojida o'rni</i>	347
Yanar C. <i>Türk dünyası doküman mirasında samsun yöresi dokümanlarından bazı nakışlar (elibesinde, koçboynuzu, sandık, çakmak, çapraz)</i>	353
Пилипчук В.Я. <i>К истории басмыльской государственности</i>	363
Memmedova M.N. <i>Azərbaycan və özbək xalq kültüründə doğum ritüelleri</i>	365
Özkurt K. <i>From context to text: The foundation inscriptions of the tombs of the two enemy brothers Amir Timur and Yıldırım Bayezid</i>	378
Тохтиев Ш.Р. <i>Социальная реклама и тематические особенности рекламного текста социальной направленности в Иране</i>	391
Xodjimuratova D.S. <i>Eron tarixida islom inqilobini eksport qilish tajribasi va uning oqibatlari</i>	398
Kamoliddinov F.B. <i>Qirg'iziston va Ko'rfaz arab davlatlari: tarixiy aloqalar va zamonaviy hamkorlikning rivojlanish masalalari</i>	404
Nurumbetova S.R. <i>Afg'onistonda islomiy yo'nalishdagi ilk siyosiy tashkilot «Musulmon yoshlari»ning vujudga kelish tarixi</i>	409
Tojiev D.B. <i>Consultative meeting of Central Asian state leaders: historical context and future prospects</i>	413

AKADEMIK UBAYDULLA KARIMOV
TAVALLUDINING 105 YILLIGI MUNOSABATI
BILAN O‘TKAZILGAN XALQARO ILMIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI
TO‘PLAMI

*O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti
direktori huzuridagi Kengashining 2025-yil 8-apreldagi 4-sonli
majlisi qarori asosida nashrga tavsiya etilgan.*

Manzil: Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumani Mirzo Ulug‘bek ko‘chasi 79.
Telefon: +998 71 262 54 61.
Faks: +998 71 262 52 77.
E-mail: berun1@academy.uz

